

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI**

**YONG'IN XAVFSIZLIGI VA FAVQULODDA VAZIYATLAR
MUAMMOLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

RAHBARIY HUJJAT

**AVTOMATIK YONG'IN SIGNALIZATSIYASI QURILMALARI.
O'RNATISHGA TALABLAR, ISHLARNI BAJARISH
VA QABUL QILISH QOIDALARI**

RH 01- 002:2022

Rasmiy nashr

TOSHKENT 2022

UDK 614.844

O'zbekiston Respublikasi FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Mualliflar: S.Djuraev, R.Tursunov, R.Sadikov, B.Muxitdinov

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2022-yil 15-oktabrdagi 473-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi FVV YoXvaFV ITI Ilmiy-texnik Kengashining qaroriga asosan chop etilishiga tavsiya etilgan.

RH 01-002:2022 "Avtomatik yong'in signalizatsiya qurilmalari. O'rnatishga talablar, ishlarni bajarish va qabul qilish qoidalari".

RH 01-002:2022 "Avtomatik yong'in signalizatsiya qurilmalari. O'rnatishga talablar, ishlarni bajarish va qabul qilish qoidalari" kuchga kirgandan so'ng, YoXRH 01-002:2007 "Yong'in signalizatsiya qurilmalari. O'rnatishga talablar va qabul qilish ishlari qoidalari" o'z kuchini yo'qotadi.

Ushbu hujjat rasmiy nashr sifatida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutining ruxsatisiz to'liq yoki qisman talqin qilinishi, tirajlanishi va tarqatilishi mumkin emas.

RH 01-002:2022 “Avtomatik yong‘in signalizatsiya qurilmalari. O‘rnatishga talablar, ishlarni bajarish va qabul qilish qoidalari”

Qo‘llanilish sohasi

Mazkur qoidalar avtomatik yong‘in signalizatsiya qurilmalarini (keyingi o‘rinlarda – AYoSQ) o‘rnatish, sozlash, ta‘mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish, sinov ishlarini bajarish va foydalanishga topshirish ishlariga tadbiq etiladi.

Ob‘ektlarda AYoSQ larni loyihalash, montaj, sozlash, ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish ishlari qonun hujjatlariga muvofiq xabardor etish tartibining tasdiqnomasi yoki belgilangan namunadagi litsenziyalarga ega bo‘lgan tashkilotlari tomonidan bajariladi.

Ushbu qoidalar tog‘-kon sanoatidagi shaxtalarda, avtotransportlarda, shuningdek portlash xavfiga ega bo‘lgan moddalarni va portlovchi moddalarni qo‘llash, ishlab chiqish yoki saqlash oqibatida portlash xavfi keltiradigan korxonalarda AYoSQni montaj qilishga, sozlashga, sinovdan o‘tkazishga va uni foydalanishga qabul qilishga taaluqli emas.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. AYoSQni montaj qilish bo‘yicha ishlar, loyiha-smeta va ishchi hujjatlarga (ish loyihasi, ishlab chiqaruvchilarning texnik hujjatlari), shaharsozlik normalari va qoidalariga (SHNQ 2.04.09 “Bino va inshootlarning yong‘in avtomatikasi”) va ushbu qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Ob‘ektlarda AYoSQni montaj ishlari ushbu qoidalarining **2-ilovasida** keltirilgan ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomasi va namunaviy loyiha yechimlar asosida bajarilishi mumkin, quyidagi ob‘ektlar bundan mustasno:

yong‘in xavfliligi bo‘yicha I- va II-guruhdagi* ob‘ektlar;

o‘ta muhim va toifalangan ob‘ektlar;

yangi qurilish ob‘ektlari;

shaharsozlik sohasidagi arxitektura yodgorliklarini muhofaza qilish davlat nazorati ostidagi ob‘ektlar;

umumiy qo‘riqlanadigan maydoni 1000 m² dan ortiq bo‘lgan sanoat ob‘ektlar;

portlash hududlari mavjud ob‘ektlarda.

Bunday toifadagi ob‘ektlarda AYoSQni montaj ishlari alohida ishlab chiqilgan loyiha hujjatlariga asosan bajarilishi zarur.

** Ob‘ektlarning yong‘in xavfliligi bo‘yicha guruhlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 3 dekabrda 2532-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Tadbirkorlik sub‘ektlariga tegishli bo‘lgan ob‘ektlarni yong‘in-profilaktika ko‘rigidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomi bilan belgilangan.*

Ob‘ektida, AYoSQni o‘rnatish bo‘yicha montaj ishlarni bajarish uchun mo‘ljallangan ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomasini tuzish maqsadida Buyurtmachi, davlat yong‘in nazorati organlari (DYoN) va ihtisoslashtirilgan montaj-sozlash tashkiloti vakillaridan iborat komissiya tashkil etiladi.

Ko‘rikdan o‘tkazish dalolatnomasining amal qilish muddati bir yil bo‘lib, uning muddati ushbu dalolatnomani tuzgan komissiya tomonidan uzaytirilishi mumkin. Dalolatnomaning shakli mazkur qoidalarining **2-ilovasida** keltirilgan.



HUJJATNING TO‘LIQ VERSIYASIGA KIRISH CHEKLANGAN

Hujjatni sotib olish uchun buyurtma berishingiz kerak.

Hujjatni O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutida buyurtma qilishingiz mumkin.

Qo‘shimcha ma‘lumot uchun telefon **71 212-68-68**